QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjabova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRIPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI

Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi

Ma'mun universiteti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti v.b., PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida chakana kreditlash amaliyotining zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilinadi. Xususan, mikroqarz va overdraft kreditlarining to'liq raqamlashtirilishi, jismoniy shaxslar uchun masofaviy kredit mahsulotlari hajmining sezilarli darajada oshishi hamda kredit portfeli tarkibida chakana segment ulushining kengayishi ilmiy asosda yoritiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, masofaviy bank xizmatlari infratuzilmasining takomillashuvi, plastik kartochkalar va to'lov terminallari tarmog'ining kengayishi bank amaliyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli kreditlashning yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sishiga, moliyaviy inklyuziya darajasining oshishiga hamda bank xizmatlari samaradorligining yuksalishiga ta'siri tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, chakana kreditlash, bank amaliyoti, YalM, kredit portfeli, mikroqarz, overdraft, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy bank xizmatlari, plastik kartochkalar, to'lov terminallari.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of retail lending practices in the banking system of Uzbekistan under the conditions of digital transformation. In particular, it scientifically examines the full digitalization of microloans and overdraft facilities, the significant growth of remote lending products for individuals, and the expansion of the retail segment's share within the overall loan portfolio structure.

The rapid development of information and communication technologies, the improvement of remote banking service infrastructure, and the expansion of plastic card and payment terminal networks demonstrate the effective implementation of digital transformation processes in banking practice. The study also analyzes the impact of digital lending on gross domestic product (GDP) growth, the enhancement of financial inclusion, and the improvement of banking service efficiency.

Key words: digital transformation, retail lending, banking practice, GDP, loan portfolio, microloan, overdraft, information and communication technologies, remote banking services, plastic cards, payment terminals.

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ практики розничного кредитования банков Узбекистана в условиях цифровой трансформации. В частности, научно обосновано освещаются процессы полной цифровизации микрозаймов и овердрафтных кредитов, значительный рост объемов дистанционных кредитных продуктов для физических лиц, а также расширение доли розничного сегмента в структуре кредитного портфеля.

Стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий, совершенствование инфраструктуры дистанционного банковского обслуживания, расширение сети пластиковых карт и платёжных терминалов свидетельствуют об эффективной реализации процессов цифровой трансформации в банковской практике. Также анализируется влияние цифрового кредитования на рост валового внутреннего продукта (ВВП), повышение уровня финансовой инклюзии и эффективности банковских услуг.

Ключевые слова: цифровая трансформация, розничное кредитование, банковская практика, ВВП, кредитный портфель, микрозайм, овердрафт, информационно-коммуникационные технологии, дистанционные банковские услуги, пластиковые карты, платёжные терминалы.

KIRISH

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, banklarning raqamli transformatsiyasi tijorat banklarining operatsion imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilagan. Xususan, raqamli kreditlash banklarning texnik samaradorligiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish natijasida kredit ajratish muddati qisqarib, mijozlar uchun vaqt va tranzaksion xarajatlarni tejash imkoniyati yaratildi [1, 2].



Iqtisodiyot texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq holda jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, bank tizimining transformatsiyalashuvi va raqamlashtirilishi sharoitida kreditlash jarayonlarini ham zamonaviy raqamli platformalar asosida tashkil etish zarurati yuzaga keldi.

So'nggi yillarda banklar kreditlash amaliyotini raqamlashtirishga qaratilgan strategiyalarni faol ishlab chiqmoqda. COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq cheklolvar davrida mijozlarning bank filiallariga tashrif buyurish imkoniyatlari qisqargani masofaviy xizmatlar va raqamli platformalarning ahamiyatini yanada oshirdi. Bu holat bank xizmatlarini ko'rsatishda transformatsiya va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarurligini yaqqol namoyon etdi.

Maqolaning maqsadi — O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya sharoitida chakana kreditlash amaliyotining rivojlanish dinamikasini, turli kredit turlarining o'sish tendensiyalarini hamda raqamli parametrlarning bank xizmatlari samaradorligiga ta'sirini kompleks tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda bank sektorining raqamli transformatsiyasi operatsion samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish tezligini yaxshilashning muhim omili sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar raqamli kreditlash tizimlari banklarning texnik samaradorligini oshirishi, kredit risklarini baholash jarayonini avtomatlashtirishi va qaror qabul qilish tezligini kuchaytirishini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, raqamli platformalar asosida tashkil etilgan kreditlash jarayonlari mijozlar uchun qulaylik yaratib, ariza topshirish, hujjatlarni taqdim etish va monitoring jarayonlarini soddalashtiradi. Ayrim tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish kredit portfeli sifati va banklar rentabelligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Pandemiya davrida olib borilgan ilmiy tahlillar esa masofaviy bank xizmatlarining jadal rivojlanishi kreditlash amaliyotining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Natijada, raqamli kreditlash bank tizimining strategik rivojlanish yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik tahlil, dinamik tahlil, solishtirma tahlil hamda korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanilgan holda ma'lumotlar qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018–2023-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari, shuningdek, xalqaro ilmiy adabiyotlar manba sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublika makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hamda tijorat banklari faoliyati ko'rsatkichlarida tahlil qilinayotgan davr mobaynida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot jarayonida yalpi ichki mahsulot (YaIM), tijorat banklarining jami aktivlari, kredit portfeli hajmi hamda chakana kreditlash amaliyoti bo'yicha dinamik ko'rsatkichlar o'rganildi (1-jadval).

1-jadval. YaIM va bank tizimi amaliyoti ko'rsatkichlari (2019–2023-yillar)

Ko'rsatkich	2019	2023	O'sish (%)
YaIM (mlrd so'm)	532712,5	1066569,0	200,21
Bank aktivlari (mlrd so'm)	272727	652157	239,12
Kredit portfeli (mlrd so'm)	211581	471406	222,82
Chakana kredit (mlrd so'm)	39934	148621	372,16

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, milliy iqtisodiyotda YaIM ko'rsatkichlari 2019–2023-yillarda 532 712,5 mlrd so'mdan 1 066 569,0 mlrd so'mgacha oshib, 200,21% darajaga yetganini ko'rish mumkin. YaIMning o'sish sur'atlari, tarkibi va omillarini tahlil qilish kengroq iqtisodiy tendensiyalarni hamda tijorat banklari faoliyati uchun shakllanayotgan ish muhitini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilingan davrda tijorat banklarining jami aktivlari 272 727 mlrd so'mdan 652 157 mlrd so'mgacha oshib, 239,12% o'sishni tashkil etdi. Tijorat banklarining kredit portfeli hajmi 211 581 mlrd so'mdan 471 406 mlrd so'mgacha ko'payib, 222,82% o'sish qayd etildi. Shuningdek, chakana kredit amaliyotlari 39 934 mlrd so'mdan 148 621 mlrd so'mgacha oshib, 372,16% o'sish sur'atini namoyon etdi.



YalMning barqaror o'sishi fonida tijorat banklari moliyaviy xizmatlarga ortib borayotgan talabni qondirish maqsadida o'z faoliyatini kengaytirmoqda. Natijada jami aktivlar va kredit portfeli hajmining oshishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, chakana kredit amaliyotining rivojlanishi kredit risklarini tizimli boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi hamda bank sektorining barqarorligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda chakana kredit turlariga ipoteka kreditlari, avtokreditlar, iste'mol kreditlari, ta'lim kreditlari, mikroqarzar va overdraft kreditlari kiradi. Mazkur kreditlar tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga taqdim etilayotgan muhim moliyaviy vositalar hisoblanadi.

2-jadval. Bank tizimi chakana kredit turlari bo'yicha amaliyoti (mlrd so'm)

Kredit turi	2019	2021	2023	O'sish (%)
Ipoteka	7977,4	11234,5	15429,1	193,41
Avtokredit	5065,4	18456,2	34660,6	684,26
Iste'mol	2547,4	15678,9	38430,8	1563,88
Ta'lim	157,6	1234,5	2760,7	1751,71
Mikroqarzar	3177,0	14567,8	25909,5	815,33
Overdraft	473,1	567,8	608,9	128,70

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda so'nggi yillarda jismoniy shaxslar talabining ortib borishi mazkur kredit turlariga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib kelgan. Xususan:

Ipoteka kreditlari tahlil qilingan davrda 7 977,4 mlrd so'mdan 15 429,1 mlrd so'mgacha oshib, 193,41% o'sishni tashkil etdi.

Avtokreditlar ushbu davrda 5 065,4 mlrd so'mdan 34 660,6 mlrd so'mgacha ko'tarilib, 684,26% o'sish qayd etildi. Tahlil qilinayotgan davrda jismoniy shaxslarning moliyaviy barqarorligi nisbatan mustahkamlangani sababli avtomobil xaridlariga bo'lgan talab ortgani kuzatildi.

Iste'mol kreditlari 2 547,4 mlrd so'mdan 38 430,8 mlrd so'mgacha oshdi. O'sish sur'ati qariyb 1 563,88% ni tashkil etib, bu iste'molchi xatti-harakatlari, iqtisodiy dinamika hamda moliyaviy amaliyotdagi sezilarli o'zgarishlarni aks ettiradi.

Ta'lim kreditlari 157,6 mlrd so'mdan 2 760,7 mlrd so'mgacha ko'payib, qariyb 1 751,71% o'sish qayd etildi. So'nggi yillarda mamlakatimizda maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinish qamrovi 10% dan qariyb 30% gacha yetgani ushbu ko'rsatkichning oshishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz bank tizimida chakana kreditlarning ayrim turlari, xususan mikroqarzar va overdraft kreditlari to'liq raqamli kreditlash amaliyotlari asosida amalga oshirilmoqda. 2019–2023-yillar davomida mikroqarzar kreditlari hajmi 3 177 mlrd so'mdan 25 909,5 mlrd so'mgacha oshib, 815,33% o'sishni tashkil etdi. Shuningdek, overdraft kreditlari 473,1 mlrd so'mdan 608,9 mlrd so'mgacha ko'payib, 128,70% o'sish qayd etildi.

3-jadval. Bank tizimida chakana kreditlarga nisbatan raqamli kreditlar ulushi (%)

Yil	Mikroqarzar (mlrd)	Overdraft (mlrd)	Ulushi (%)
2019	3177,0	473,1	9,14
2021	14567,8	567,8	14,23
2023	25909,5	608,9	17,84

Bank tizimida raqamlashtirilgan kreditlar sifatida mikroqarzar va overdraft kreditlarinig ulushiga nisbatan tahlil qilingan davr mobaynida 9,14% dan 17,84% gacha o'sgan. Bu kreditlash amaliyotida xususan, mikrokreditlar va overdraft kreditlariga nisbatan raqamlashtirish tendensiyasi o'sib borayotganidan dalolat beradi.

4-jadval. Tijorat banklari raqamli parametrlari (2019-2023)

Ko'rsatkich	2019	2023	O'sish (%)
Plastik kartochkalar (ming)	20143,0	45224,2	224,51
To'lov terminallari (ming)	375,1	428,1	114,11
Bankomatlar va infokiosklar	8709	26576	305,15
Terminal orqali to'lovlar (mlrd)	64284,5	228308,7	355,15
Raqamli chakana kredit (mlrd)	1234,5	8967,8	726,10



2019–2023-yillarda O'zbekiston tijorat banklarida muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 20 143 038 donadan 45 224 213 donaga ko'payib, o'sish sur'ati 224,51% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich mamlakatimizda elektron to'lov usullarining joriy etilishi va qo'llanilishi sezilarli darajada kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Ushbu davrda O'zbekiston tijorat banklarida o'rnatilgan to'lov terminallari soni 375 127 donadan 428 073 donaga ko'payib, 114,11% o'sishni tashkil etdi. To'lov terminallari sonining oshishi mamlakatimizda to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish va elektron to'lov usullarini keng joriy etish yo'nalishidagi izchil sa'y-harakatlarni ifodalaydi.

Tahlil qilingan davrda O'zbekiston tijorat banklarida o'rnatilgan bankomatlar va infokiosklar soni 8 709 tadan 26 576 tagacha ko'payib, 305,15% o'sish sur'atini namoyon etdi. Bu ko'rsatkich aholi uchun bank infratuzilmasini kengaytirish hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish borasidagi ishlar samaradorligini ko'rsatadi.

2019–2023-yillarda to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 64 284,5 mlrd so'mdan 228 308,7 mlrd so'mgacha oshib, 355,15% o'sishni tashkil etdi. Mazkur natija mamlakat ichida moliyaviy operatsiyalarni raqamlashtirish jarayonida elektron to'lov vositalariga bo'lgan ishonch tobora ortib borayotganini anglatadi.

Shuningdek, tahlil qilinayotgan davrda raqamli chakana kredit operatsiyalari hajmining 726,10% ga oshgani jismoniy shaxslar o'rtasida mazkur kredit vositalariga bo'lgan talab sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy rivojlanishda raqamli yechimlardan foydalanish barqaror o'sish va ijobiy iqtisodiy natijalarga olib keladi. Raqamli parametrlar hamda jismoniy shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy korrelyatsiya kuzatiladi [8, 9].

Raqamlashtirish savdo oqimlariga, mahsulot va xizmatlar sifatining oshishiga hamda eksport hajmining kengayishiga, xususan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish va savdoga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamlashtirish darajasi mamlakatlarning daromad darajasidan qat'i nazar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [10].

Aloqa va axborot xizmatlari hajmining barqaror o'sishi masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishni yengillashtiradi hamda ularning keng qabul qilinishiga zamin yaratadi. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasida yalpi qo'shilgan qiymat hajmining ijobiy o'sishi ushbu tarmoqlarda qiymat yaratilishining ortishi hamda raqamli iqtisodiyot rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Tijorat banklari kreditlash jarayonlarini soddalashtirish maqsadida raqamli platformalar va texnologiyalardan tobora keng foydalanmoqda. Xorijiy tajriba mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida raqamli parametrlar intensivligini oshirish muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Axborot-kommunikatsiya sohasining kengayishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va bandlik imkoniyatlarini yaratishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Respublikamizda axborot-kommunikatsiya korxonalari sonining ortishi turli sohalarda raqamli xizmatlar rivojlanishiga turtki berib, iste'molchilar va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shaxsiy kompyuterlar va korxonalarda raqamli ulanishning kengayishi umumiy raqamli transformatsiya jarayonini aks ettiradi. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi korxonalar sonining ortishi taklif etilayotgan raqamli xizmatlar diversifikatsiyasini jadallashtirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya sharoitida chakana kreditlash amaliyoti bo'yicha quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, 2019–2023-yillarda YaIM 200,21% ga, tijorat banklari jami aktivlari 239,12% ga, kredit portfeli 222,82% ga va chakana kredit amaliyoti 372,16% ga oshgan. Chakana kredit amaliyoti eng yuqori o'sish sur'atini namoyon etdi.

Ikkinchidan, avtokreditlar (684,26%), iste'mol kreditlari (1 563,88%) va ta'lim kreditlari (1 751,71%) eng yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishgan bo'lib, bu aholi daromadlari o'sishi va iste'mol xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Uchinchidan, mikroqarz kreditlari 815,33% ga oshib, to'liq raqamlashtirilgan kredit turi sifatida yuqori o'sishni namoyon etdi. Bank tizimida raqamli kreditlar ulushi 9,14% dan 17,84% gacha oshdi.

To'rtinchidan, axborot-kommunikatsiya korxonalari soni 165,34% ga, optik tolali aloqa liniyalari uzunligi 641,35% ga, yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari 326,95% ga oshdi.

Beshinchidan, jismoniy shaxslarning masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari 398,78% ga, plastik kartochkalar soni 224,51% ga, raqamli chakana kredit operatsiyalari 726,10% ga oshdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. Elektron to'lov vositalarini yanada kengaytirish va plastik kartochkalardan foydalanishni rag'batlantirish.
2. To'lov terminallari va bankomatlar sonini oshirish orqali bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish.



3. Mikroqarz va overdraft kreditlari kabi to'liq raqamlashtirilgan kredit turlarini rivojlantirish hamda boshqa kredit mahsulotlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish.

4. Axborot-kommunikatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarni zamonaviy texnologiyalar bo'yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Umuman olganda, O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari izchil rivojlanmoqda. YaIM, bank aktivlari va kredit portfelining o'sishi iqtisodiy rivojlanishning ijobiy tendensiyalarini ko'rsatadi. Raqamli infratuzilmaning kengayishi masofaviy bank xizmatlari rivoji uchun mustahkam asos yaratdi. Raqamli chakana kredit operatsiyalari hamda plastik kartochkalar sonining sezilarli o'sishi elektron to'lov vositalariga bo'lgan ishonchning ortib borayotganini tasdiqlaydi. Taklif etilgan chora-tadbirlar bank tizimining raqamli transformatsiyasini yanada jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zhu Y., Jin S. COVID-19, digital transformation of banks, and operational capabilities of commercial banks // Sustainability. – 2023. – Vol. 15, № 11. – Art. 8783.
2. Getugi J. C., Osoro C., Kihara A. Digital lending and technical efficiency of commercial banks in Kenya // International Journal of Finance. – 2023. – Vol. 8, № 3. – P. 38–56.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.
4. Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.
7. Минтақа рақобатбардошлигининг илмий-назарий жиҳатлари ва ўзига хос хусусиятлари // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Vol. 4, № 08. – P. 30–38. – DOI: 10.55439/AFA/vol4_iss08/459.
8. Askerov N. S. et al. Sustainable and advanced development of region's economy based on digital competitiveness // Challenges of the Modern Economy: Digital Technologies, Problems, and Focus Areas of the Sustainable Development of Country and Regions. – Cham: Springer International Publishing, 2023. – P. 529–532.
9. Chiappini R., Gaglio C. Digital intensity, trade costs and exports' quality upgrading // The World Economy. – 2022.
10. Шакибаев М. К., Балгинова К. М., Шайкенова Н. Т. Влияние цифровизации на социально-экономическое развитие мегаполиса (на примере Алматы) // Economics: the Strategy and Practice. – 2023. – Vol. 18, № 2. – P. 57–73.
11. Hudayberganov D., Mavlanova B., Zakirova G., Kuramboev F., Hudoyberganov D., Hudayberganova G. Features of assessing the satisfaction of the population with food consumption.
12. Ravshanbekova M., Mavlanova B. Industrial waste and global climate: pathways to a green economy transition // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025. – № 3.
13. Рузметова Г. Н. Япония ва Корея тажрибасида инсон капитали трансформацияси // Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2025. – Т. 4, № 19. – С. 48–54.
14. Akhmedova D. K. K. Digitalization of retail lending practice in commercial banks of the Republic of Uzbekistan // Frontline Marketing. Management and Economics Journal. – 2023. – Vol. 3, № 05. – P. 25–32.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
